


## 2022- yilning yanvar-sentabrida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 747,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 4,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 3,0 % ga yetdi.




## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>16 012,7</b>	<b>18 747,6</b>	<b>104,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 635,6	18 277,3	104,5
mahsulotlarga sof soliqlar	377,1	470,3	109,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>15 635,6</b>	<b>18 277,3</b>	<b>104,5</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>8 215,2</b>	<b>9 087,4</b>	<b>103,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 830,4</b>	<b>3 680,5</b>	<b>107,0</b>
sanoat	1 819,9	2 565,0	107,5
qurilish	1 010,5	1 115,5	106,0
<b>xizmatlar</b>	<b>4 590,0</b>	<b>5 509,4</b>	<b>105,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	890,8	1 113,3	111,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	590,9	678,5	109,3
boshqa xizmat tarmoqlari	3 108,3	3 717,6	102,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 12 885,0 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 % ga yuqoridir.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari**





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 49,7 % ni, sanoat tarmog‘i 14,0 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 30,2 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,6	97,5
mahsulotlarga sof soliqlar	2,4	2,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>52,5</b>	<b>49,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>18,1</b>	<b>20,1</b>
sanoat	11,6	14,0
qurilish	6,5	6,1
<b>xizmatlar</b>	<b>29,4</b>	<b>30,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,7	6,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,8	3,7
boshqa xizmat tarmoqlari	19,9	20,4

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)





● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 49,7 %), sanoatda – 107,5 % (14,0 %), qurilishda – 106,0 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 105,0 % ni (30,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,3 % (6,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,3 % (3,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,4 % dan (20,4 %) iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,9 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,3 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,4 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 3,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

## 2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabrda YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 131,1 % va xizmatlar sohasida – 114,3 % qayd etildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 79,4 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrda – 81,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

81,1 %

2022- yil

79,4 %